

MINTAQADA ZAMONAVIY TADBIRKORLIKNI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNI JADALLASHTIRISHDA SOLIQ TIZIMI

TAX SYSTEM IN ACCELERATION OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF MODERN ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi, o'qituvchisi

Akbarov Akramjon Ibragimjonovich

*University of Business and Science non-state higher educational institution,
teacher*

Akbarov Akramjon Ibragimjonovich

Аннотация: *Maqolada zamonaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishni jadallashtirishda soliq tizimi, bugungi kundagi kichik biznes faoliyatini o'zgarish jarayonlari xamda mamlakatimiz kichik biznes faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *biznes, atrof-muhit, tadbirkorlik, investisiya, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investitsiyalar, investisiya tizimi.*

Аннотация: *В статье освещаются налоговая система, процессы изменений в деятельности современного малого бизнеса, а также эффективность развития малого бизнеса в нашей стране в ускорении эффективного развития современного предпринимательства.*

Ключевые слова: *бизнес, окружающая среда, предпринимательство, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.*

Abstract: *The article covers the tax system, the processes of change in the activities of modern small businesses, as well as the effectiveness of small business development in our country in accelerating the effective development of modern entrepreneurship. The article covers the tax system, the processes of change in the activities of modern small businesses, as well as the effectiveness of small business*

development in our country in accelerating the effective development of modern entrepreneurship.

Keywords: *business, environment, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.*

Kirish.

Xar bir davlatni budjet tizimi shakllanishida soliq tizimining o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Inson sha`ni va qadr-qimmati yo`lida»gi asosiy tamoyil xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish, inson huquq va manfaatlarini ta`minlash va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishni ko`zda tutadi. Shu bilan birga, 2030 yilga borib, aholi jon boshiga daromadlarning 4 000 AQSH dollarigacha o`sishini ta`minlash orqali o`rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish maqsadini o`z oldiga qo`yadi[1].

Bugungi kunda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta`minlashga bosqichma-bosqich o`tishning huquqiy, institusional va iqtisodiy asoslari shakllantirilgan.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash bo`yicha aniq natijalar quyidagilardan iborat:

- ❖ tadbirkorlik sub'yektlarini rasmiy ro`yxatdan o`tkazish va ruxsat berish tartib-tamoyillari ikki baravar qisqartirildi;
- ❖ nazorat va tekshiruvlarning barcha turlari (ro`yxatda ko`rsatilganlardan tashqari) bekor qilindi.
- ❖ yangi ro`yxatdan o`tgan yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlar uchun
- ❖ yuridik shaxs tashkil etmasdan mikrocreditlar ajratish mexanizmi yaratildi;
- ❖ maxsus moliyaviy yordam davlat jamg`armasi tashkil etildi.

Bizga ma'lumki, "Kichik biznes – huquqiy shaxs sifatida korxona tashkil qilish evaziga tadbirkorlik ishini yuritadigan, amaliyotda kichik korxonalar faoliyati ustidan statistik kuzatuvlar olib borish va taqqoslash uchun foydalanishda, hududlararo va halqaro tahlil qilishda qulaylik yaratish maqsadida kichik biznes o'lchamlarini aniqlash, hamda imtiyozlar olish uchun yo'naltiriladigan korxonalarni belgilab olish zarurligida, korxonalarni soliqqa tortish mexanizmidan samarali foydalanish jarayonida, ishchi-xodimlar sonining qat'iy belgilangan me'yori asosida yuritiladigan xo'jalik faoliyatidir"[2].

Tahlil va natijalar. Yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarish, ularni tovarlarni eksport qilish uchun imtiyoz va qulayliklar berish, soliqlardan imtiyozlar, moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda imtiyozli chegirmalari qo'llanilishi davlat tomonidan nazoratni kamaytirish orqali kichik biznes sub'yektlariga erkinlik berildi.

O'zbekistonning viloyatlarida kichik biznes ulushiga oid ma'lumotlar berilgan. E'tiborli tomoni eng yuqori ulush Jizzax viloyatida 78,6 %, Surxondaryo viloyatida 78 %, Namangan viloyatida 74,2 % ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida kuzatildi va 29,9 % ni tashkil etdi. Kichik biznes ulushi 50 % dan past bo'lgan uchta viloyat mavjuddir. Ularda soha ulushini ko'tarish bo'yicha amaliy ishlarni bajarish maqsadga muvofiqdir[6].



Qoraqalpog'iston

2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznesning ulushi, %

Shu bilan birlikda soliq tizimini o‘zgarib borishi tadbirkorlikni tashkil etish va uni rivojlantirishga samarali ta’sir etmoqda. Shu bois kundan kunga tadbirkorlar soni ortib bormoqda. Quyidagi jadval bunga misol bo‘ladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2022- yil 1- iyul holatiga		2023- yil 1- iyul holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	30 403	100,0	23 058	100,0
Namangan sh.	10 023	33,0	7 101	30,8

Mingbuloq	1 289	4,2	1 088	4,7
Kosonsoy	1 880	6,2	1 397	6,1
Namangan t.	2 050	6,8	1 417	6,1
Norin	1 555	5,1	1 149	5,0
Pop	1 885	6,2	1 737	7,5
To'raqo'rg'on	1 923	6,3	1 591	6,9
Uychi	1 997	6,6	1 400	6,1
Uchqo'rg'on	1 891	6,2	1 636	7,1
Chortoq	1 863	6,1	1 407	6,1
Chust	2 494	8,2	1 976	8,6
Yangiqo'rg'on	1 553	5,1	1 159	5,0

Yuqoridagi jadvalni ko'radigan bo'lsak, ya'ni faoliyat ko'rsatayotgan jami 23 058 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 8 967 tasi (38,9 %) - savdoda, 5 028 tasi (21,8 %) - sanoatda, 1 994 tasi (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 613 tasi (7,0 %) - qurilishda, 1 257 tasi (5,5 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 962 tasi (4,2 %)- tashish va saqlashda, 574 tasi (2,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 336 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 327 tasi (10,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi[7].

Bundan tashqari 2023 - yil yanvar-iyun oylarida jami 2 464 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,3 foizni tashkil etgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (659 ta), Uchqo'rg'on (209 ta), Mingbuloq (192 ta), To'raqo'rg'on (191 ta), Pop (186 ta), Chortoq (181 ta), Kosonsoy (165 ta), Uychi (162 ta) va Chust (141 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa,

Namangan (101 ta), Norin (138 ta) va Yangiqo'rg'on (139 ta) tumanlariga to'g'ri keladi[7].

Bugungi kunda soliq tizimini takomillashtirishda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes sub'yektlarini jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilganligi natijasidir. Ammo, bu ko'rsatkichlar, ma'lum darajada shartlidir. O'zining «kichik biznes» degan nomiga karamasdan, ushbu ishlab chikarish, xizmat ko'rsatish va tijorat faoliyati turlari iqtisodiy jixatdan taraqqiy etayotgan davlat iqtisodida muxim ahamiyatga egaligi bob-bot ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek lizing beruvchi lizing oluvchi tomonidan belgilangan mol-mulkni u ko'rsatgan sotuvchidan olishga va uni ijaraga oluvchiga vaqtincha foydalanish uchun haq evaziga qaytarib bermasdan berishga rozilik beradi. Ko'pincha lizing yuridik shaxslar tomonidan moliyalashtirish vositasi sifatida ishlatiladi, bu soliq imtiyozlari bilan bog'liq. Turli mamlakatlarning qonunchiligi lizingning soliq oqibatlarini turlicha ko'rib chiqadi. Rossiyada lizing tezkor amortizatsiyadan foydalanishga imkon beradi. 2017 yilda bozor ishtirokchilari va mutaxassilari bilan keng jamoatchilik muhokamasi davomida Rossiya bankining lizing kompaniyalarining maxsus reyestri yuritilishini o'z ichiga olgan holda lizing sohasini isloh qilish taklif qilindi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ayni paytdagi tez sur'atli dunyoda mamlakatimiz o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor, tadbirkorlikni jadal rivojlantirishda soliq siyosati, soliq tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlatchilik ko'rinishida soliqlar nafaqat tadbirkor, korxona va tashkilotlarni balki alohida jismoniy shaxslarni iqtisodiy harakatga keltiruvchi "muruvvat" sifatida xizmat qiladi. Soliq va yig'imlarning asosiy, ya'ni fiskal funksiyasini bajarish bilan bir qatorda soliq to'lovchilar bilan soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini

soddalashtirish muhimdir, shuningdek soliq uslubiylatini ishlab chiqish va kelgusida soliq yig'iluvchanligini oshirish yuqorida keltirib o'tilgan davlatlar soliq tizimida soliq bazasini aniqlash tartiblari va xususiyatlarini tahlil qilish orqali erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotining biznes sektorining raqobatbardoshligini oshirish muhitini yaxshilash uchun qulay sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatasilarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modda. Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.12.2020-y., 03/20/652/1581-son)

2. N.K.Murodova Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish.iqtisodiy fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2016, 17 b.

3. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. - М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 290 с., с.86].

4. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss.avtoref. – T.: 2005-39 b.

6. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistika to'plam. Toshkent, 2020 y.190b.

7. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.